

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MUZEY PEDAGOGIKASI VOSITASIDA TURIZM FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI

Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich

*Farg'ona davlat universiteti "Pedagogika nazariyasi va tarixi" mutaxassisligi
1-bosqich magistranti*

ORCID ID: 0009-0005-4516-9920

saydaliyevichsaidakbar2004@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi vositasida turizm faoliyatiga tayyorlashning mazmuni va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Muzey pedagogikasi o'quvchilarda tarixiy-madaniy merosga hurmat, estetik did va ijodiy yondashuvni shakllantirishda muhim vosita sifatida ta'kidlanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning turizm faoliyatiga tayyorgarligini oshirishda muzeylarning o'quv-tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish, ularni madaniy turizmni rivojlantirishga jalb qilish yo'llari tahlil qilinadi. Maqola pedagogik ta'lim tizimida muzey pedagogikasini qo'llashning amaliy jihatlari va ushbu jarayonda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'рни haqida mulohaza yuritadi.

Kalit so'zlar: muzey pedagogikasi, turizm faoliyati, bo'lajak o'qituvchilar, madaniy turizm, tarixiy-madaniy meros, pedagogik ta'lim, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

СОДЕРЖАНИЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ТУРИСТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СРЕДСТВАМИ МУЗЕЙНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Убайдуллаев Саидакбар Сайдалиевич

*Теория и История педагогики
магистрант направления (по видам деятельности)*

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание и значение подготовки будущих педагогов к туристской деятельности средствами музейной педагогики. Музейная педагогика выделяется как важное средство формирования у учащихся бережного отношения к историко-культурному наследию, эстетического вкуса и творческого подхода. Анализируются пути использования учебно-воспитательного потенциала музеев, привлечения их к развитию культурного туризма при повышении готовности будущих педагогов к туристской деятельности. В статье рассматриваются практические аспекты применения музейной педагогики в системе педагогического образования и роль современных образовательных технологий в этом процессе.

Ключевые слова: музейная педагогика, туристская деятельность, будущие педагоги, культурный туризм, историко-культурное наследие, педагогическое образование, современные образовательные технологии.

CONTENT OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR TOURISM ACTIVITIES THROUGH MUSEUM PEDAGOGY

Ubaydullayev Saidakbar Saidalievich

*Theory and history of pedagogy
(by type of activity) master's degree*

Annotation: *this article will consider the content and importance of preparing future teachers for tourism activities through museum pedagogy. Museum pedagogy is emphasized in students as an important tool in the formation of respect for historical and cultural heritage, aesthetic taste and creative approach. In increasing the readiness of future teachers for tourism activities, ways are analyzed to take advantage of the educational opportunities of museums, to involve them in the development of cultural tourism. The article reflects on the practical aspects of the application of museum pedagogy in the pedagogical education system and the role of modern educational technologies in this process.*

Keywords: *Museum pedagogy, tourism activities, future teachers, cultural tourism, historical and cultural heritage, pedagogical education, modern educational technologies.*

KIRISH

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot oqimi sharoitida jamiyatning maqsadli, tasdiqlangan va qulay axborotga bo'lgan ehtiyoji har qachongidan ham ortib bormoqda. Bu borada muzeylar faoliyati alohida o'rin tutadi. Muzeyning ta'limiy ahamiyati turli davrlardagi ma'naviy-moddiy madaniyat yodgorliklarida to'plangan ijtimoiy tajribani saqlab qolish va keyingi avlodlarga etkazishga asoslanadi.

So'ngi yillarda muzey pedagogikasini rivojlantirishning huquqiy asoslari, Qonunchilik bilan bog'liq tashkiliy masalalar isloh qilinib, takomillashtirilmoqda. Bu orqali muzeylar faoliyati va ularning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat bilan integrasiyasini taminlash masalalari ham ko'rsatib berilgan. O'zbekiston Respublikasining "muzeylar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 11 iyuldagi "Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqqligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 2017 yil 11 dekabrda "2017-2027 yillarda Davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 975-son qarorlari qabul qilindi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni raqobatbardosh kadr va kuchli mutaxassis qilib etishtirish bilan birga ularni axloqli inson, faol shaxs sifatida tarbiyalash ham muhim vazifalardan biri etib belgilangan. Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlari bilan birga ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash ishlarini olib borish, ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish, urf-odat, an'analar va milliy qadriyatlar bilan oziqlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kadr avvalo inson bo'lsin, unda axloqiy mezonlar yaxshi shakllangan, ijtimoiy mas'uliyat va dahldorlik yuqori bo'lishi zamon talabidir. Shu bois bo'lajak kadrlarni ijtimoiy va tarixiy merosni tashuvchilari bilan muloqotga kirishishlari uchun sharoit yaratish va bu orqali ularda muhim ijtimoiy faoliyatga doir qarashlar, qiziqishlarni rivojlantirish talab etiladi. Muzey pedagogikasi bu borada muhim ta'sir ko'rsatuvchilik vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Muzey pedagogikasining nazariy asoslari: Muzey pedagogikasi bo'yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda (masalan, Stolyarov, B. A., 2018; Yusupova, M., 2020) muzeylarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'рни ta'kidlanadi. Stolyarov muzeylarni "o'quv maydoni" sifatida talqin qilib, ularning o'quvchilarda estetik did va tarixiy ongini shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Yusupova esa O'zbekiston muzeylarining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilib, mahalliy madaniy merosni ta'limda qo'llash bo'yicha amaliy takliflar beradi. Biroq, bu tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashga alohida e'tibor berilmagan.

Turizm va pedagogika integratsiyasi: Turizm sohasida pedagogik yondashuvlarni o'rganuvchi ishlar (Smith, M., 2019; Qodirov, A., 2021) madaniy turizmning ta'limdagi o'rnini ko'rib chiqadi. Smith madaniy turizmni rivojlantirishda o'qituvchilarning targ'ibotchi va tashkilotchi sifatidagi rolini ta'kidlasa, Qodirov O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda mahalliy xodimlar, shu jumladan o'qituvchilarning tayyorgarligiga e'tibor qaratadi. Ushbu tadqiqotlar turizm faoliyatiga tayyorlashning umumiy strategiyalarini muhokama qilsa-da, muzey pedagogikasi bilan bog'liq maxsus metodologiyalarga chuqur kirmaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda muzey pedagogikasining o'рни: Bir qator mualliflar (Ivanova, T., 2020; Rahmonova, G., 2022) bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy

faoliyatga tayyorlashda muzeylardan foydalanish bo'yicha tajriba va takliflarni keltiradi. Ivanova muzeylarda o'tkaziladigan interaktiv darslar o'qituvchilarning ijodiy va tashkiliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Rahmonova esa O'zbekiston sharoitida muzey pedagogikasini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha amaliy misollar keltiradi. Ammo bu ishlar turizm faoliyatiga yo'naltirilgan maxsus tayyorgarlik masalalariga to'liq javob bermaydi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va muzey pedagogikasi: So'nggi tadqiqotlarda (Johnson, L., 2023; To'xtayeva, Z., 2023) muzey pedagogikasida raqamli texnologiyalar va virtual muzeylarning qo'llanilishi yoritiladi. Johnson virtual muzey ekskursiyalarining ta'limda samaradorligini ta'kidlasa, To'xtayeva O'zbekiston muzeylarida raqamli kontentni ta'limda qo'llash bo'yicha takliflar beradi. Bu tadqiqotlar bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi, lekin ularni tizimli joriy etish bo'yicha aniq strategiyalar yetishmaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi oliy ta'lim tizimida o'tiladigan tarix va geografiya fanlarini o'qitish holati, bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashdagi muammolarni ko'rib chiqish, ularni tanqidiy baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan mazkur fanlarda muzeyshunoslikning o'rganilishi, muzeylarga sayohat qilish, virtual muzeylarga tashrif buyurish va bu orqali tarixiy hamda o'lkashunoslik muzeylari faoliyati bilan tanishish imkoniyati mavjud emas. Shu bilan birga muzey pedagogikasi yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari va yo'nalishlar mavjud bo'lmagani sababli bu sohada mutaxassisliklarga talab standartlari ham umumiy belgilangan emas. Muzey pedagogikasining yo'naltiruvchi, bilim beruvchi, motivasiya uyg'otuvchi va forig'lantiruvchi funktsiyalaridan rasional foydalanib, talabalarni turli faoliyat turlariga tayyorlovchi xususiyatlaridan foydalanish imkoniyati mavjud emas.

Shuningdek, tarix va geografiya yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalarida muzey pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanishni ta'minlovchi nazariy fanlar va amaliyot mashg'ulotlariga soat ajratilmagan. Tarix yo'nalishida ta'lim oluvchilar uchun amaliyot mashg'ulotlarini muzeylarda o'tkazish rejalashtirilgan bo'lsa-da, bu

jarayon o'z navbatida, samarali yo'lga qo'yilgan deb bo'lmaydi. Masalaning eng muammoli jihati shundaki, muzey pedagogikasi bo'yicha kuchli mutaxassislar etishmaydi va bu muzeylarning tarbiyaviy va yo'naltiruvchi funktsiyasidan maqsadli foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Talabalar muzeylardagi amaliyot mashg'ulotlariga shunchaki tomoshabin sifatida boradilar va ularda mutaxassis sifatidagi yondashuv shakllanmaydi, natijada ular amaliyot rahbariga bog'lanib qolaveradilar. Shuningdek, turizm faoliyatiga yo'naltiruvchi, qiziqtiruvchi va motivasiya beruvchi fanlar tarkibida asosiy mavzularning joy olmaganligi ham mazkur masalani chuqur o'rganish va yangicha yondashuv asosida ta'lim metodikasi va texnologiyasini ishlab chiqishni talab etadi.

Bir jihatdan olib qaralganda, muzey va uning ijtimoiy vazifasi to'g'risida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ularda muzeyning tashuvchilik, tanishtiruvchilik va saqlovchilik funktsiyalariga alohida urg'u beriladi.

Umuman olganda, "muzey – san'at, texnika, tabiat namunalari, tarixiy va ilmiy-tabiiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni yig'ish, saqlash, o'rganish va xalqqa namoyish qilish bilan shug'ullanadigan muassasa" hisoblanadi. Unda insonlar estetik munosabatga kirishadi, hissiyotlardan ta'sirlanadi va ma'lum tuyg'uni his etadi. Natijada ularda ma'lum bir voqea, jarayon va o'tmish voqealari bilan bog'liq yangicha tasavvur gavydalanadi. Muzeylarni rivojlanib borish bilan muzey pedagogikasi tushunchasi ham shakllandi va alohida faoliyat turi sifatida rivojlana boshladi.

Muzey pedagogikasi tushunchasi birinchi bo'lib XIX asr oxirida Germaniyada shakllangan va bugungi kunda muhim ijtimoiy faoliyat sifatida o'zining ish uslubi, ijtimoiy vazifasi va ishlash tamoyillariga ega.

Professor B.Xodjaevning fikricha, "muzey – bu uzoq va yaqin o'tmishdan darak beruvchi maskan, ayni paytda katta jonli, tabiiy, ko'rgazmali ashyolari bilan tarbiyaviy quvvatga ega bo'lgan darsxona – ta'lim-tarbiya o'chog'idir". Shu bois, ta'limda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligini ta'minlashda fanlar tarkibi oldindan rejalashtirilib amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalar, safarlar, ekspeditsiyalar bilan muvofiqlashtirilgan holda o'tilishi tarbiyaviy tadbirning ta'sirchanligini oshiradi. U ma'naviy-axloqiy tarbiya o'chog'i

bo'lib, moddiy va ma'naviy buyumlar to'plami orqali ilmiy, tarixiy, madaniy qadriyatlarni yosh avlodga etkazuvchi maskan hisoblanadi.

Asrdan asrga qadar ular jamiyatning ma'naviy hayotida, ma'rifat, talim va axloqiy-estetik tarbiyada, axborot-komunikasiya jarayonlarida tobora ko'proq rol o'ynamoqda. Biroq, muzeylarda jahon va milliy tarix va madaniyatning millionlab bebaho eksponatlari mavjudligi o'z-o'zidan muvaffaqiyatni kafolatlamaydi. Bunda ushbu ma'naviy boylikni aholining turli qatlamlari ongiga olib kiradigan ilmiy mazmunli ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ehtiyoj seziladi.

Hozirgi vaqtda muzey pedagogikasi madaniy tajribalarni o'tkazishga yo'naltirilgan muzeylarning maqsad va vazifalari, tamoyillari, mazmuni, usullari, amalga oshirish shakllarini o'rganish bilan shug'ullanadigan ilmiy qarashlarning fanlararo yo'nalishi sifatida belgilangan.

B.A.Stolyarovning fikricha, "muzey pedagogikasi – muzeylarning madaniy-ma'rifiy faoliyati tarixi, xususiyatlari, muzeylarning turli toifadagi tashrif buyuruvchilarga ta'sir qilish usullari, muzeylarning ta'lim muassasalari bilan o'zaro aloqalarini o'rganuvchi fan sohasidir".

Zero, muzeylar o'sib kelayotgan yosh avlodni moddiy-ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda madaniy-tarixiy, tabiiy-ilmiy qadriyatlarni o'zida jamlaydigan ijtimoiy institut hisoblanadi. Shuning uchun ham muzey va maktablarning ta'lim sohasidagi faoliyatiga tizimli va dasturlashtirilgan holda yondashish talab etiladi.

C.V.Dusenko muzey pedagogikasiga quyidagicha ta'rif beradi: "pedagogika, psixologiya, muzeyshunoslik va muzey bilan bog'liq fanlar hamda muzey muhitida madaniy tajribani o'rganishga qaratilgan o'ziga xos amaliy tadbirlar asosiga qurilgan ilmiy bilimlarning fanlararo sohasi sifatida belgilangan pedagogika fanining yo'nalishlaridan biridir".


"Muzey atamalarining qisqa lug'ati"da "muzeydan foydalanish pedagogikasi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish omili sifatida: axborot manbai, ta'lim va tarbiya vositasi, pedagogik jarayonni tashkil etish shakli" ekanligi haqida ta'rif keltirilgan.

Shuningdek, boshqa bir ta'rifga ko'ra, muzey auditoriyasi - bu muzeyning ta'siri yo'naltirilgan odamlar jamoasi. U o'ziga xos ijtimoiy-demografik parametrlarga (jins, yosh, ma'lumot, yashash joyi) muvofiq tavsiflanadi. Yuqoridagi asosiy

ko'rinishlardan tashqari qo'shimcha Art-terapiya, sovg'a-darslar, mini tadqiqotlar, dastlabki dehqonchilik manzilgohlarining tahlili va boshqa bir qancha noan'anaviy faoliyat turlari mavjudki, bu barcha tadbirlar milliy tariximiz va madaniyatimiz bilan chuqurroq tanishish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Talabalarni milliy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoniga yo'naltirish uchun, eng avvalo, ularni milliy madaniyatga xos bo'lgan harakatga undovchi vaziyatlarga echim topishga jalb etish lozim.

Madaniy muhit bilan o'zaro faol munosabatda bo'lishning va ishtirokchilarda tezkor ta'sirlanish hissini uyg'otishning samarali vositasi bu virtual ekskursiyalar hisoblanadi. Sayohatning bunday turi odatda bir qancha slaydlar ko'rgazmasi, rasmlar va videolavhalar bilan birgalikda namoyish qilinadi. Uning ustun taraflaridan biri kam vaqt sarflab keng qamrovli ob'ektlar bilan tanishishni o'z ichiga olishi hisoblanadi. Unda, shuningdek, zaruriy ob'ektga alohida to'xatilib o'tish, yaqinroq tanishish va batafsil ko'rish, muhokama qilish imkoniyati mavjud bo'lib, bu talabalarda kuzatish va tahlil etish qobiliyatini shakllantiradi. Virtual sayohatning turli bosqichlarida interfaol topshiriqlar qo'llaniladi va bu orqali talabalarning istak va qiziqishlarini bilish mumkin bo'ladi.



Oliy ta'lim va muzeylar faoliyatidagi pedagogik hamkorlik tamoyillari.

Muzeylarda tashkil qilingan darslar davomida talabalar teatrlashtirilgan hamda ko'rgazmali chiqishlarda faol ishtirok etib, xalq va muallif-ijodkorlarning asarlarini saxnalashtirishadi. Ular tomonidan dexqonning oilasidagi tushlik, bozor, sovchilik, do'stlar uchrashuvi va Navro'z bayramini nishonlash kabi maishiy hayotdagi voqealar ham ijro etishi mumkin.

Germaniyadagi muzey va ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro aloqalar o'qituvchiga muayyan o'quv vazifalarini hal etishga yordam berishga asoslangan. Shu ma'noda san'at muzeyi ham bundan mustasno emas.

XX asr boshlariga kelib Myunxendagi nemis tabiatshunoslik va texnologiya durdonalari muzeyi asoschilaridan biri g.Kershenshtayner "ta'lim nazariyasi" kitobini yozdi. Unda nemis muzeylari faoliyatini pedagogik asosda tashkil etish zarurligini asoslab berdi va bu maqsadga erishish yo'llarini belgilab berdi. G.Kershenshtaynerning pedagogik faoliyati kontsepsiyasining asosini muzey pedagogikasiga bog'laydi. Uning fikricha, "yoshlarni bilim orqali tarbiyalab, o'qitmoqchi bo'lgan muzeyni tashkil etish o'quv-qurilishdan boshqa narsa emas, faqat bu erda qurilish ob'ektlarning soyalari bilan emas, balki ob'ektlarning o'zi bilan maktablardagidek ishlaydi". Demak, ta'sir ko'rsatishda muzey pedagogikasining o'рни va ahamiyati beqiyos va buni mazkur olim juda to'g'ri talqin qiladi.

Germaniyada muzey pedagogikasi va uning vazifalariga doir muammolar "a'lim va tarbiya Markaziy institute"ning pedagoglari L.Pallat, D.Rixter va g.Froydentallar tomonidan tadqiq etilgan va tizimlashtirilgan.

Muzey pedagogini muzeyda talabalarni o'qitish jarayonini tashkil qila oladigan mutaxassis bo'lishini hisobga olib, g.Froydental o'quvchilarni tarixiy, tabiatshunoslik va san'at muzeylari bilan tanishtirishni, talabalar uchun esa texnik va maxsus muzeylarni tavsiya qildi. Berlindagi etnografiya muzeyi bo'lim boshlig'i A.Reyxveyn "muzey pedagogikasi" atamasini birinchilardan bo'lib qo'llagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Alimova M.T. Turizm tizimiga oid kategoriyalarning ilmiy-nazariy talqini va ta'riflarini takomillashtirish. // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar. Ilmiy elektron jurnal. 2016. № 4, iyul-avgust, – B.7.
2. Асланова Д.Х. Модели формирования туристского кластера за рубежом // Сервис, 2013. №1, –С: 4-9.

3. Багдасарян В., Орлов И. Советское Зазеркалье (Иностранный туризм в СССР в 1930–1980-е годы) - Москва:, 2007. – С. 120.
4. Бакушинский А.В. Исследования и статьи. - Москва: 1981. –С. 59.
5. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. - Москва.: Финансы и статистика, 2003. –С.176.
6. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – Т.: Fan, 2001.
7. Касьянов В.Н., Несгаворова Г.П., Волянская Т.А. Виртуальный музей истории информатики в Сибири // Современные проблемы конструирования программ. – Новосибирск, 2002. – С.170.
8. Каулен, М. Е. Словарь актуальных музейных терминов / М. Е. Каулен, А. А. Сундиева, И. В. Чувилова и др. // Музей. –2009. – № 5. – С. 47–68.